

**“DEVONU LUG‘ATIT TURK” ASARIDAGI REALIYA ISHTIROK ETGAN  
MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI**

*O’rinboyeva Mubinabonu Iqboljon qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti*

*O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Devonu lug’otit turk asaridagi realiya qatnashgan maqollar taxlil etilgan va borligicha ma’no va mazmunlari keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Realiyalar, devon, lingvokulturologik, madaniy, folklor.

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Tilning shakllanishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyosdir. Folkloarning eng qadimiy janrlaridan biri maqollardir. Maqollarda xalqning turmush tarzi, mehnat faoliyati, shaxs tarbiyasi, an’ana va qadriyatlar o‘z ifodasini topadi. “Devonu lug‘otit turk” asarida 300 ga yaqin maqol va matallar keltirilgan bo‘lib, ular hozirgi kunga qadar yetib kelgan va badiiy qimmatini yo‘qotmagan. Maqol janrining dastlabki namunalari ham aynan “Devonu lug‘otit turk” da keltirilgan. XX asrning oxirgi 30-yillarida maqollarni tahlil qilishning yangi struktur-semantik yondashuvi yuzaga keldi. Bu matn lингвистикasi va paremiologiya fan sohalari taraqqiyoti bilan bog‘liq. Imiy paremiologiyaning asoschilaridan biri G.L. Permyakovdir. Uning fikricha, “tugallanmagan fikr”ni ifodalovchi majoziy so‘z oborotlariga matallar, “tugallangan fikr”ni shakllantiruvchi majoziy ma’noli gaplarga maqollar deyiladi.<sup>2</sup> Maqollarni ham, matallarni ham G. L. Permyakov (bosma qolip so‘zlar) nazariyasi doirasida ko‘rib chiqadi. Har bir tilning lug‘at zahirasida murakkab o‘ziga xos qoliplar (klishe) bo‘ladi, ya’ni turg‘un, nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan, bo‘linmas oborotlar mavjud. Bular (ustasi farang) shaklidagi frazeologizm-idiomalar shaklidagi tarkibiy atamalar, har turli maqollar, matallar, “balandparvoz so‘zlar”, muallifning xalq hikmatli so‘zlari, semiotika

<sup>2</sup> Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише) –Москва, 1970. – С.7

(belgilar haqidagi fan)da oson tafakkur qilinadigan odatiy gazeta va adabiy shtamplar va boshqalar. O‘zbek tilshunosligida maqollarni pragmatik va lingvokulturologik jihatdan tahlil etish endi yo‘lga qo‘yilayotgan jarayonlardan hisoblanadi. Biz ham tadqiqot ishimizda, “Devon” da keltirilgan realiyalar ishtirokidagi maqollarni lingvokulturologik tahlil qilishga bel bog‘ladik. Bir jihatdan, realiyalarning o‘zi butun millat haqida boy tasavvurlarni hosil qilsa, ikkinchi tomondan, xalqning oltin fondidan joy olgan maqollar ham milliy munosabat va qadriyatlarni, xalqning betakror an'analarini, tafakkurini badiiy ravishda ifoda eta olishi bilan ahamiyatlidir. Bunda realiyalar maqollarning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan birliklar sifatida ahamiyatlidir.

“Devonu lug‘otit turk” asaridan realiyalar ishtirok etgan 10 ta maqolni ajratib oldik va ularni tahlil qilishga harakat qildik.

### *1. Qilnu bilsä, qızıl kedär, yaranu bilsä, yaşıl kedär.*

Bu tadqiqotda “bayan” [23, 325] deb ataladigan kiyim-kechak bilan bog‘liq realiya-so‘zga ishora bor. Uning lug‘aviy ma’nosи to‘q qizil rang demakdir. Ayni paytda, kelinchak guli deyilgan gul rangidagi har qanday narsa ma’nosini ham anglatadi. Maqolning mazmuni esa shunday: “Xotin sho‘x va ishvali bo‘lgisi kelsa, qizil ipaklik kiyadi, ya’ni bayan rangli kiyim. Nozli bo‘lgisi kelsa, ko‘k ipaklik kiyadi, ya’ni er hurmatiga sazovor bo‘lgan kiyim kiyadi”. Ushbu maqol hozirgi kunga qadar yetib kelmagan bo‘lsa-da o‘z davri uchun ahamiyatli hisoblangan. Ushbu maqol orqali kiyim-kechaklarni tanlashda va ularni kiyishda ranglarga ham ahamiyat berishganligining guvohi bo‘lamiz. Negaki, ranglar ham inson psixologiyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Rang ramzlar asrlar davomida shakllanib, tarixan xalqning qadimiy mif, turli e’tiqodiy dunyoqarashlariga borib bog‘lanadi. Barcha turdagи ranglarning tub ildizi xalqning u yoki bu mifologik tasavvur, e’tiqodiy qarashlariga bog‘liqdir. Rang ramzlar folkloarning har bir janrida o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi. Marosim folklori namunalarida magik-poetik ma’no tashisa, nomarosim folklor janrlarida badiiy-estetik

mazmun ifodalaydi. Har bir xalqning tafakkur tarixini uning folkloridagi betakror obrazlar – ramz va timsollar asosida o‘rganish mumkin. Jumladan, rang bilan bog‘liq ramz-timsollar ham ushbu qatordan munosib o‘rin egallaydi. Xuddi shuningdek, bizning turkiy qavm va millatlarning tilida ularning doimiy ravishda to‘rt fasl muntazam almashinib turuvchi mo‘tadil o‘lkada yashaganlari, asosiy xo‘jalik yuritish sohalari chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lganligidan ularning tillarida ayni sohalarga tegishli ranglar ustuvor ko‘rinish olgan.

## *2. Kimiñ bilä qaš bolsa, yašin yaqmas.*

Ushbu maqolda “qaš” [23, 145] oq rangli, tiniq tosh bo‘lib, narsa-predmet nomini bildiruvchi realiyadir. Bu toshning xislati shundayki, uni bo‘zga o‘rab o‘tga tashlansa, bo‘z ham, tosh ham kuymaydi. Bu sinalgan usuldir. Tashna kishi og‘ziga solsa, tashnalikdan qutuladi. Maqolning mazmuni esa, kimning yonida qash toshi bo‘lsa, unga chaqmoq zarar bermaydi.

Koshg‘ariy zamonida turkiy xalqlar maxsus, shifobaxsh toshlar haqida bilgan va ular dan foydalanishgan. Asarda ularning umumiyligi nomi **yat** [23,324] shaklida keltirilgan. Yat – yada toshlari. Qadimgi turkiylar ushbu yada toshlari bilan yom‘ir, shamol, qorlarni chaqirish marosimini o‘tkazganlar. Bu marosim yag‘mo xalqlari ortasida keng tarqalgan hodisa ekanini muallif alohida ta’kidlab o‘tgan: “*U yerda chiqqan bir yong‘inni so‘ndirish uchun shunday marosim o‘tkazilgan edi. Tangri taoloning izni bilan yozda qor yog‘di va ko‘z oldimda yong‘inni so‘ndirdi*”. Albatta, bunday toshlar qimmatbaho bo‘lgan. Shifobaxsh toshlarning tarixiga nazar solsak, ular dan dunyoning turli xalqlari foydalanganining guvohi bo‘lamiz. Odamlar minglab yillar davomida qimmatbaho toshlar va kristallarni qadrlashgan. Ularni xudolarga sovg‘alar sifatida taqdim etishgan, ular baxtli joziba sifatida taqilgan yoki zargarlik buyumlari sifatida foydalanilgan. Xitoyliklar ming yillar oldin toshlarning shifobaxsh xususiyatlarini kashf etdilar va tananing ayrim qismlariga joylashtirish orqali ularga munosabatda bo‘lishdi. Ossuriya va bobilliklar qimmatbaho toshlardan shifobaxsh damlamalarni tayyorladilar. Qadimgi Hindistonlik Ayurveda ta’limotida shifobaxsh

ta'siri borligi aytilgan qimmatbaho toshlardan pasta, kukun va iliksir ishlab chiqarilgan.

#### *3. Aş tatiğī tuz, yoğrīn yemäs.*

Ushbu maqolda “yoğrı” [23, 278] – lagan ma’nosini bildirib, narsa-predmet nomini bildiruvchi realiyadir. Bevosita uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan bog‘liq realiya hisoblanadi. Maqolning mazmuni shunday: osh tuz bilan totli, lekin lagan bilan yolg‘iz tuzning o‘zi yeylimaydi. Bu maqol ishlarda aniq maqsadli bo‘lishga undab aytiladi. Maqolda osh realiyasi ham ishtirok etgan. Bunda osh leksemasi umumiy ma’noda ovqatni bildirgan. Ushbu maqol hozirgi kunda biz eng ko‘p qo‘llaydigan “Do‘stsiz boshim, tuzsiz oshim” maqoliga sinonim bo‘la oladi.

#### *4. Anası tewlüg yuwqa yapar, oğlı tetig qoşa qapar.*

Ushbu maqolda “yuwqa” – har qanday yupqa narsaga ishora qiluvchi so‘z. Bir o‘rinda, xamirni yupqa yoyib, qizdirilgan qozonda har ikki tomonini ag‘darib pishirib, so‘ng ichiga qiymali piyozdog‘ solib, to‘rt burchak shaklida taxlab tayyorlanadigan ovqat ma’nosini ham bildirgan. Bu sifat qadimgi turkiy tildagi yon ko‘lamini ingichka qilib yoy ma’nosini anglatgan yub fe’lidan -qa qo‘srimchasi bilan yasalgan [24, 41] keyinchalik q undoshi ta’sirida b undoshi p undoshiga, o‘zbek tilida a unlisi ä unlisiga almashgan: yub + qa = yubqa > yupqä. Maqolning mazmuni shunday, onasi hiyla bilan nonni yupqa yopsa, bolasi ziyraklik qilib qo‘sha-qo‘sha og‘ziga soladi. Bu maqol ikki hushyor kishining qarshiligi teng kelishiga ishorat qilib aytiladi.

#### *5. Yiparlığ kesürgüdün yipar ketsä, yiđi qalır.*

“Yiparlığ kesürgü” [23, 134] – mushkli, mushk saqlanadigan idish bo‘lib, narsa-predmet nomini bildiruvchi realiyadir. Maqolning mazmuni quyidagicha: “Mushk idishida mushk tugasa ham, hidi qolaveradi”. Bu maqol boyligi qo‘ldan ketib, yuqiyurunigacha qolgan bo‘lsa ham, biror narsa so‘ralsa, unda topilaveradigan kishi haqida aytiladi.

#### *6. Ata toni oğulqa yarasa, atasin tilämäs.*

Ton – to‘n, kiyim-kechak ma’nosini bildiruvchi realiyadir. Maqolning mazmuni: “Otaning to‘ni o‘g‘ilga mos kelsa, undan so‘ng o‘g‘il meros olish uchun otasining tirikligini istamaydi”. Buning yana boshqa ma’nosi bor: so‘ng o‘g‘ilning otaga ehtiyoji qolmaydi. O‘g‘uzlar shu so‘zdan olib “yol yarasun” deydilarki, “yo‘l maqsadingga muvofiq bo‘lsin” demakdir.

## *7. Bor bolmadip sirkä bolma.*

Bor – bo‘za demakdir. Bu ichkilik mahsulotlari nomini bildiruvchi realiyadir. Maqolning mazmuni shunday: “Sharob bo‘lmay turib, sirkä bo‘lma”. Bu maqol o‘zini qarilarga o‘xshatadigan yoshlarga qarata aytildi.

## *8. Bilgä erän sawlariñ algil ögüüt,*

*Edgü sawiğ edläsä özkä sinjär.*

Sawči – shaxs otini bildiruvchi realiyadir. Kelin va kuyovlar orasida xat-xabar tashuvchi odam. Aytmoqdaki: “Bilag‘on kishilarning so‘z, o‘gitlaridan foydalan. Chunki yaxshi so‘z ta’sir qilgach, ko‘ngilga joylashadi.

## *9. Sedrämiš olgün qoyaq.*

*Sarmamış süttän qayaq.*

Qayaq, qïyaq – qaymoq. Sut mahsulotlari nomini bildiruvchi realiyadir. Ushbu she’riy parchada shoir aytmoqdaki, tariq donlari siyrak bo‘lib qolgan. Sutdan qaymoq suzildi, yejish uchun ikkovini birga pishirish kerak.

## *10. Otaǵqa öpkäläp, sükä sözlämädiük.*

Otaǵ - chodir. Chodir narsa-predmet nomini bildiruvchi realiyadir. Vaqtinchalik ko‘chma turar joy, boshpana. O‘tmishda ko‘chmanchi turkiylar orasida keng tarqalgan. Katta-kichik ko‘rinishda bo‘lib, qalin pishiq matodan, ko‘pincha sinchga tortib qilinadi. Chodir tepasida havo almashib turishi, tutun chiqishi uchun tuynuk ishlanadi. Hozir chodirdan uzoq safarda harbiylar, alpinistlar, geologlar va boshqalar foydalanadi. Me’morlikda — shakli chodirsimon (konussimon yoki qirrali konussimon) gumbaz ham chodir deyiladi.

Maqolning mazmuni shunday izohlangan: “Chodirdagi hamroxlaridan xafa bo‘lib, askarlar bilan so‘zlashmadi”. Bu maqol birov qilgan bir ishdan achchiqlanib, do‘stlaridan xafalanuvchi, ular bilan so‘zlashmaydigan kishiga qarata aytildi.

“Devonu lug‘otit turk” da keltirilgan maqollarning mazmuniy tomoni haqiqatan ham cheksiz. Maqollar inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi, jamiyatning turmushi, madaniyati, hayoti va tarixini o‘zida aks ettiradi. Maqollar xalq donishmandligini ifodalar ekan o‘ziga xos, insondagi eng axloqiy sifatlar ma’qullanadigan, ma’naviyat tasdiqlanib, har qanday nuqson, illat qoralanadigan o‘ziga xos axloq kodeksi sifatida namoyon bo‘ladi.

## Foydalaniman adabiyotlar ro’yxati

- 1 . Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar devoni. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. I tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. – T.: O‘zbekiston FA nashriyoti, 1960, 500 b.
2. Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar devoni. Devonu lug‘otit turk. II tom. – T.: O‘zbekiston FA nashriyoti, 1961, 428 b.
- 3 Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar devoni. Devonu lug‘otit turk. III tom. T.: O‘zbekiston FA nashriyoti, 1963, 463 b.
4. Xolmirzayev Sh. Saylanma 3-jild. – Toshkent, 2006. – B.278
5. Zunnunova S. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2001. – B.234
- 6 Mirmuhsin. Umid. – Toshkent, 2016. – B.98.
- 7 Mahmud Koshg‘ariy „Devonu lug‘atit turk“. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. Tom I II III. – Toshkent, 1960-1963. T.1. – 1960. 499 b. T.2. – 1961. 427 b. T.3. – 1963. 466 b